



BOLALARDA O'TKIR PIELONEFRITNING KECHISHI VA XUSUSIYATLARI

G'iyosova Sevinch Oybek qizi

Beshariq Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi o'qituvchisi

Annotatsiya:

Piyelonefrit- buyrak va buyrak jomining yallig'lanishi (piyelit). Piyelonefrit mustaqil ravishda yoki siydik yurishini qiyinlashtiruvchi siydik-tanosil sistemasi kasalliklari.

Kalit so'zlar: O'tkir pielonefrit, kechishi va xususiyatlari, buyrak va buyrak jomining yallig'lanishi, Birlamchi piyelonefrit.

Аннотация: В статье рассмотрено течение и особенности острого пиелонефрита у детей.

Ключевые слова: Острый пиелонефрит, течение и особенности, воспаление почки и почечной лоханки, первичный пиелонефрит.

Annotation: This article discusses the course and characteristics of acute pyelonephritis in children.

Key words: Acute pyelonephritis, course and characteristics, inflammation of the kidney and kidney cup, Primary pyelonephritis.

Piyelonefrit (yunoncha: pyelos — jom va nephros — buyrak) — buyrak va buyrak jomining yallig'lanishi (piyelit) piyelonefrit mustaqil ravishda yoki siydik yurishini qiyinlashtiruvchi siydik-tanosil sistemasi kasalliklari (prostata bezi adenomasi, siydik toshi kasalligi va boshqalar) natijasida vujudga kelishi mumkin. Piyelonefrit turli infeksiyon kasalliklar oqibatida ham paydo bo'ladi. Bolalarda ko'pincha gripp, zotiljam va nafas organlarining boshqa kasalliklari tufayli ro'y beradi. Ayollarda homiladorlik vaqtida kattalashgan bachadon siydik naylarini ezishi natijasida siydikning yurishi qiyinlashib, piyelonefrit vujudga kelishi mumkin. Ko'pincha



International Conference on Medical Science, Medicine and Public Health

Hosted online from Jakarta, Indonesia

Website: econfseries.com

30th December, 2024

homiladorlik davrida ilgari sira bilinmasdan kechgan va vaqtida aniqlanmagan bo'lsa surunkali piyelonefrit avj oladi.

Piyelonefrit buyrak to'qimasiga kasallik mikroblari kirishi natijasida vujudga keladi. Mikroblar uretrit yoki sistitda siydik nayi bo'ylab yuqoriga ko'tariladi yoki organizmda yallig'langan joylar bo'lganida, shuningdek, angina, tonzillitda yoki tishlar chiriganida infeksiya qon tomirlaridan borib, buyrakka kiradi. Birlamchi va ikkilamchi piyelonefrit farq qilinadi. Birlamchi piyelonefritda mikroblar organizmdagi yiringli manbaa (tonzillit, chipqon va boshqalar)dan qon orqali buyrakka ta'sir etishi mumkin. Ikkilamchi piyelonefrit siydik yo'llari yallig'langanda vujudga keladi. O'tkir va surunkali piyelonefrit bo'ladi. Et uvushib, kuchli titrash, isitmalash, qattiq terlash, belning bir tomonida yoki umurtqa pog'onasining ikki yonida og'riq paydo bo'lishi, ko'ngil aynishi, qayt qilish, og'iz qurishi, muskullarning bezillab turishi o'tkir piyelonefritga xos belgilardir. Siydik tekshirilganda undan leykotsitlar va mikroblar ko'p topiladi. Surunkali piyelonefrit uzoq, yillar davomida hech qanday belgilersiz kechishi mumkin, uni faqat siydikni tekshirgandagina bilinadi. Surunkali piyelonefritda belda bir uzoq og'riq bo'ladi, bosh tez-tez og'rib turadi. Ba'zan sal isitma chiqadi. Surunkali piyelonefrit vaqti-vaqti bilan kuchayishi mumkin. Bunda o'tkir piyelonefritga xos belgilar paydo bo'ladi. Surunkali piyelonefrit o'z vaqtida davolanmasa, buyrak to'qimasi asta-sekin buziladi, buyrakning siydik ajratish funksiyasi o'zgaradi, natijada (agar ikkala buyrak kasallangan bo'lsa) organizm azotli chiqindilar bilan zaharlanadi (Uremiya). O'tkir piyelonefrit bilan og'riganda bemor, odatda, faqat kasalxonada davolanadi. Vrach buyurgan rejimga rioya qilinmasa, kasallik surunkali shaklga o'tadi. Surunkali piyelonefrit bilan og'riganda bemorlar doimo vrach kuzatuvida bo'lishi va u buyurgan rejim hamda davo tadbirlariga to'liq amal qilishlari lozim, jumladan, parhez buyuriladi, dudlangan, ziravorli, konservalangan mahsulotlar, achchiq narsalar, spirtli ichimliklar man etiladi. Osh tuzini kamroq iste'mol qilish kerak. Kasallikning oldini olish uchun turli yuqumli kasalliklarni o'z vaqtida davolatish, organizmdagi infeksiya o'choqlarini yo'qotish, organizmni chiniqtirish muhim ahamiyatga ega. Homiladorlar vaqti-vaqti bilan ayollar konsultatsiyasiga borib siydikni bot-bot



International Conference on Medical Science, Medicine and Public Health

Hosted online from Jakarta, Indonesia

Website: econfseries.com

30th December, 2024

tekshirtirib turishlari lozim. Bu kasallik uzoq muddatli davolanishni talab qiladi, lekin uni butunlay davolash mumkin.

Xulosa qilib aytganda Bolalarda pielonefritni qanday davolash mumkinligi uning shakliga, yallig‘lanish tabiati va buyraklarda patologik o‘zgarishlar mavjudligiga bog‘liq. Har qanday kasallik, ayniqsa dietani o‘zgartirishni talab qiladi. Bolardagi pielonefrit uchun dieta buyraklardagi yukni kamaytirish va metabolik kasalliklarni tuzatishga qaratilgan. Tavsiya etilgan agar bolada buyrak funksiyasi buzilmagan bo‘lsa, tuz cheklanmagan va suyuqlik miqdori oshmagan. Aks holda, tuz va suyuqlikni cheklash kerak bo‘ladi. Protein-sabzavotli idishlar foydali. Siz qovurilgan, yog‘li va baharatli ovqatlardan voz kechishingiz kerak. Agar kerak bo‘lsa, bola kasalxonaning nefrologik yoki urologik bo‘limiga joylashtiriladi. Shuningdek, bir yoshgacha bo‘lgan bolalarni o‘tkir pielonefrit bilan kasalxonada davolash yaxshiroqdir. Birlamchi o‘tkir pielonefritni davolashning eng oson yo‘li. Ammo agar kasallik tiklanishidan 2 hafta o‘tgach qaytsa, unda patogen to‘liq bartaraf etilmagan bo‘lsa, kasallikning surunkali shaklini olish xavfi mavjud. Ko‘proq tadqiqotlar talab qilinadi va yangi terapevtik kurs talab qilinadi.

Adabiyotlar:

1. Ichki kasalliklar Muallif: A. G. Gadayev Chop etilgan yili: 2016
2. Ichki kasalliklar M.F. Ziyayeva Toshkent ilm ziyo 2007
3. Internet ma’lumotlari.